

## O'QUV-BILUV FAOLIYATIDA O'QUVCHILAR MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRILISHI

Normurodova Hilola

Termiz davlat pedagogika instituti 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13905776>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada O'quv-biluv faoliyatida o'quvchilar mantiqiy fikrlashini rivojlantirilishi haqida fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan. Maqola davomida asosli xulosalar keltirib o'tilgan.

*Kalit so'zlar:* Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari tafakkuri, O'quv-biluv faoliyati, faraz.

## DEVELOPMENT OF STUDENTS' LOGICAL THINKING IN EDUCATIONAL ACTIVITIES

*Abstract.* In this article, opinions are given about the development of students' logical thinking in educational activities. Reasonable conclusions are made throughout the article.

*Key words:* Thinking of primary school students, Educational activity, hypothesis.

## РАЗВИТИЕ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ В УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Аннотация.* В данной статье приводятся мнения о развитии логического мышления учащихся в учебной деятельности. На протяжении всей статьи сделаны обоснованные выводы.

*Ключевые слова:* Мышление младших школьников, Учебная деятельность, гипотеза.

Jamiyat rivojining hozirgi darajasi va turli manbalardan ma'lumotlarni tarqalishi, boshlang'ich sinflardayoq o'quvchilarga hodisalarni mohiyati va sabablarini ochib berishni, ularni tushuntirishni talab qilmoqda.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy imkoniyatlari haqidagi muammolar turli davrlarda turlicha hal etilgan. Qator zamonaviy tadqiqotlar natijasida bolaning aqliy imkoniyatlari ilgari taxmin qilinganidan kengroq ekanligi aniqlandi, ya'ni ta'limni maxsus tashkil etilishi asosida boshlang'ich sinf o'quvchisi abstrakt, nazariy materialni o'zlashtirishi mumkin.

Bu ayniqsa, matematika darslarida, ya'ni aniq predmetlar ustidagi amallardan o'quvchi sonlar ustidagi aqliy amallarga o'tishida nomoyon bo'ladi; xuddi shu narsa ona tili darslarida o'quvchilar tomonidan so'zlarni o'zlashtirilishida, ya'ni u dastlab predmetdan ajratilmaydi, lekin asta-sekinlik bilan u maxsus o'zlashtiriladigan predmetga aylanadi.

[3, B.104]da shu narsa qayd etib o'tilganki, kichik maktab yoshidagi bolalar algebra elementlarini to'lig'icha egallashlari mumkin, masalan, kattaliklar o'rtasida munosobatlarni o'rnatishlari. Kattaliklar o'rtasida munosobatlarni aniqlash uchun bu munosobatlarni modellashtirish zarur ekan – ularni boshqa moddiy shaklda ifodalanishi, shunda ular harakat yo'nalishi uchun asos bo'ladi.

Kattaliklar o'rtasidagi munosobatlarni bola tomonidan bunday (og'irlik, hajm, yuza, uzunlik) modellashtirilish hamda dastlab grafik munosobatlar (kesmalar) shaklida, so'ngra  $A = V$ ,  $A > V$ ,  $A < V$  ko'rinishidagi abstrakt simvollar yordamida modellashtirilishga o'tilishi, bola uchun bu munosobatlar asta-sekinlik bilan predmet amallariga aylanadi.

Masalan, doskada va daftarda bir litr suv ma'lum bir kesma uzunligida belgilanadi, ikki litr esa – ikki marta katta bo'lgan kesma bilan, uch litr – uch marta katta kesma va shu kabi belgilash kiritiladi. Shundan so'ng bolalar mos kattaliklarni (kesmalarni) belgilovchi harflar bilan ishlay boshlashadi.

Tafakkurning abstrakt tomonidan rivojlanishiga ona tili darslarining grammatikasi muhim ahamiyat kasb etadi. Savod chiqarishga o'rgatishda (o'qish va yozish) so'z o'quvchi ongida chetdan tovush va grafik shaklda nomoyon bo'ladi, lekin ona tili grammatikasiga ega bo'lganidan keyin esa so'z – gapning bir qismi shaklida nomoyon bo'ladi. Birinchi sinf o'quvchisida so'z predmetdan ajralmagan holda, ya'ni u predmetning bir xossasi sifatida keladi.

Ko'pchilik hollarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy faoliyatining zahirasiga to'g'ri baho berilmaydi. Lekin, P.Y. Galperin, D.B. Elkonin va boshqalarning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'limini mos holda tashkil etilishi natijasida ular so'zlarning ma'nosi bilan uning moddiy shakli o'rtasidagi o'zgarishlarni o'rnatish mumkin ekan. Bunga quyidagi holda erishish mumkin. Bola so'zni ma'nosiga ko'ra o'zgartiradi (masalan, baliq, baliqchi, baliqchilik, baliqli), olingan bir so'zni uning variantlari va tovush tarkibi bilan taqqoslab, uning asosini tashkil qiluvchi morfemini ajratadi hamda so'zning morfologik tarkibini aniqlaydi.

Ma'lumki, o'quv dasturlarida o'quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllantirishga katta e'tibor qaratiladi. Bu yerda predmet va munosobatlar tushunchalari farqlanadi. Umumiy va muhim belgilarni hamda predmetlarning obyektiv haqiqiylikini masalan, qush, ruchka, qalam va boshqalarni bilish predmet tushunchalar hisoblanadi. Munosobat tushunchalari esa obyektiv dunyodagi mavjud bog'liqliklarni va munosobatlarini aks ettiradi, masalan, evolyutsiya, katta-kichik va boshqalar.

Birinchi bosqichda, o'quvchilar predmet tushunchalarni o'zlashtira turib, odatda predmetlarning funksional belgilarini ajratishadi, ya'ni predmetning nima uchun mo'ljallanganligi bilan bog'liqligi, masalan: “sigir – sut beradi”, “ot – miniladi”.

Ikkinchi bosqichda, o'quvchilar predmet tushunchalarni o'zlashtirishda, ular uchun ma'lum xossa va belgilarni muhimlarini muhim bo'lmaganlaridan farqlamasdan qayd etishadi. Masalan, “bodring – poliz ekini, u ko'k rangda, mazali, unda suv ko'p, uning ichida urug'i ham bor”.

Uchinchi bosqich, o'quvchilar egallaydigan predmet tushunchalarining eng yuqori darajasi bo'lib, unda o'quvchilar alohida predmetlarning umumiy, muhim belgi va xossalarini ajratishadi, ularni yig'ib umumlashtirishadi.

Shu bilan birga shuni nazarda tutish lozimki, ko'rsatib o'tilgan bosqichlar birdaniga bir-birini navbati bilan almashtirmaydi. Tushunchalar shakllanishida real jarayonlarda turli bosqichlar o'rtasida keskin chegara mavjud emas. Birinchi bosqichda ikkinchi bosqichning elementlari yoki yuqori bosqichda tushunchalarni o'zlashtirishda pastki bosqich elementlari uchrashi mumkin. Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, turli bosqich elementlari birgalikda mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, uchinchi sinf o'quvchilarida ular uchun ma'lum sohaga tegishli tushunchalarni o'zlashtirish uchinchi bosqich darajasida bo'lishi mumkin, noma'lum predmetlarni o'zlashtirish esa ikkinchi bosqichda bo'lishi mumkin[7,B.210].

Tushunchalar munosobatlarini o‘zlashtirish ham xuddi shuningdek o‘zining bosqichlariga ega.

Birinchi bosqichda o‘quvchilar alohida har bir aniq holat bo‘yicha bu tushunchalar ifodalanishi qarashadi. Bunda ular amaliy jihatdan bir kattalik ikkinchisidan katta yoki kichikligini topishadi, lekin, umumlashtirishni amalga oshirishmaydi.

Ikkinchi bosqichda tushunchalar munosobatlarini o‘zlashtirishda o‘quvchilar umumlashtirishni amalga oshirishadi, lekin bu umumlashtirishlarni ular faqat qaralayotgan holatga tegishli deb qarashib, uni yangi holatlarga kengaytira olishmaydi.

Uchinchi bosqichda o‘quvchilar hosil qilingan umumlashtirishlarni muvaffaqiyatli ravishda turli holatlarga tadbiq etishadi. Tushunchalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishi ko‘p jihatdan tafakkur amallarining rivojlanish darajasiga bog‘liq. Tushunchalarni samarali shakllantirish uchun, o‘quvchilarda tafakkur amallarining rivojlanishini o‘ziga xosligini bilish zarurdir.

#### **REFERENCES**

1. Ahmedova M., Abdurahmonova N., Jumayev M. Matematika 1-sinf uchun darslik. “Turon-Iqbol” 2014.
2. Abdurahmonova N., O‘rinboyeva L. Matematika 2-sinf uchun darslik. “Yangiyo‘l Poligraf Servis”. 2014y
3. Burxonov Sh., Xudoyorov U. Matematika 3-sinf. “Sharq” nashriyoti. 2014. 206-b.
4. Bikbayeva N.U., Yangibayeva E., Girfanova K.M. Matematika 4-sinf. “O‘qituvchi” nashriyoti. 2013, 206-bet.
5. Гурова Л.Л. Психология мышления. – М.: ПЕР СЭ, 2005. – С. 47.
6. Гуткина Н.И. Психологическая подготовка детей к школе в группе развития // Активные методы в работе школьного психолога. М., 1990. – С. 58.